

.....

ERKIN VOHIDOV SHE'RIYATIDA YOYIQ MUROJAATLAR SEMANTIKASI

Mardon Raxmatov,

Alfraganus universiteti professori,

filologiya fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya: Mazkur maqolada Erkin Vohidov she'riyati misolida murojaat shakllarining sintaktik-semantik va uslubiy xususiyatlari tadqiq etiladi. Murojaat shakllarining gap sintaktik tuzilishidagi o'rni, ularning an'anaviy gap bo'laklaridan farqli jihatlari hamda introduktiv aloqa doirasidagi funksional xususiyatlari nazariy jihatdan yoritiladi.

Kalit so'zlar: Erkin Vohidov, o'zbek tilshunosligi, poetik sintaksis, murojaat shakli, undalma, deskriptiv murojaat, sodda murojaat, yoyiq murojaat.

Gapning shakliy tuzilishi tilshunoslikda juda uzoq davrlardan buyon gap bo'laklari sifatida o'rganib kelindi. Tobe aloqa tarkibida muayyan sintaktik vaziyatda keluvchi eng kichik sintaktik shakl gap bo'lagi sanaladi. Ammo sintaktik tuzilishning barcha qismlari ham tobe aloqaga kirishavermaydi, ya'ni jumla tarkibida bo'lib u bilan mazmuniy munosabatda bo'ladi. Lekin bu mazmuniy munosabat shakliy jihatdan tobe munosabat orqali emas, balki undash va kirish munosabatlari orqali ifodalanadi. Bunday til birliklari sintaktik tuzilish birligi sifatida qaralmaydi. Shuning uchun ham o'zbek tilshunosligiga ayrim mualliflar tomonidan to'rtinchi darajali bo'lak tushunchasi olib kirildi va an'anaviy gap bo'laklari sirasiga kiritilmaydigan, grammatik aloqadan tashqaridagi gapning qismi, ya'ni undalmalar (murojaat shakllari) kirish, kiritmalar, sintaktik bo'linishning to'rtinchi darajasini tashkil qilishi aytiladi [1;30]. Bu bo'laklar tilshunoslikda gapning sintaktik tarkibini murakkablashtiruvchi bo'laklar deb ham aytiladi. Shundan kelib chiqib ularning asosiy gap tarkibidagi sintaktik shakllar bilan bo'lgan aloqasini nazarda tutgan holda ularga introduktiv aloqa turi deb ham qaraladi.

Ma'lum bo'ladiki, gapning asosini predikat tashkil qiladi. Uning bo'sh o'rnini tobe so'z maqomidagi turli sintaktik shakl (argument)lar to'ldirib keladi. "Predikatning

bo'sh o'rinlarini predmetning murakkab nomlari ham egallashi mumkin. Bu vaqtda predmetning murakkab nomlari bir butun holda predikatning argumenti bo'lib keladi. Predmetning murakkab nomi o'z ichki tuzilishiga ega bo'lganligi sababli u ham qismlarga ajraladi. Lekin bu qismlar jumlaning emas, balki murakkab nomning qismi sanaladi" [3;93]. Bu xususiyat murojaatl shakllariga ham xos. Ular o'ziga tobe so'zlar bilan kengayib, murakkab nom – deskripsiya holda ham qo'llanadi.

E.Vohidov she'rlarida murojaat shakllarining tarkibi turlicha: ba'zan bir so'z bilan ifodalansa, ba'zan yoyiq (deskriptiv) shaklda ishlatiladi.

Bir so'zdan iborat sodda murojaat:

*- Janob, yukingizni bu yoqqa qo'ying,
O'zingiz bu yerdan o'ting, marhamat.*

(Dehli aeroportida bo'lgan voqea)

Shoirning she'rlarida murakkab nomlardan iborat murojaatlar talaygina. Ular vazifasiga ko'ra farqlanmasa ham, sintaktik-semantik tuzilishi jihatidan farqlanadi.

*Ovora bo'lmang, ey, hassos shoirlar,
Ayol tasviriga ojiz erur she'r. (Sakkizinchi mart)*

Ma'lumki, murojaat so'zlari murojaat obyektini nomlovchi nominativ birlik sifatida predmet asosga ega bo'ladi va ular asosan ot va otlashgan so'zlardan tashkil topadi. Murojaat shaklining tayanch so'zi hisoblangan otlarning valentlik xususiyatlari asosida kengaytiruvchi bo'laklar otlarning ana shu valentliklarini to'ldirib keladi. Masalan, har qanday predmet miqdor, sifat, qarashlilik kabi valentliklarga ega. Bu valentliklarning to'ldirilishi deskripsiyani (murakkab yoki yoyiq nomlarni R.M.) vujudga keltiradi [4;11]. Demak, murojaat shakllarida otlarning valentligini to'ldirib keluvchi bo'laklar aniqlovchi bo'lsa, valentligi to'ldirilayotgan otlar esa aniqlanmish hisoblanadi. Lekin bu bo'linish gapga nisbatan emas, deskripsiyaning – murojaat birligining o'z ichida bo'lganligi sababli bu qism predikat va uning argumentlari o'rtasidagi munosabat sifatida qaraluvchi gap tuzilishi uchun nofunkSIONALdir.

Deskriptiv murojaatlar ham sodda murojaatlar kabi atash, baholash, ijtimoiy maqomini ko'rsatish, ba'zan tavsiflash kabi vazifalarni ham bajaradi, shuningdek, ular rasmiy yoki norasmiy munosabatni ifodalashi mumkin. Umuman olganda, murojaatlarning sintaktik tarkibi qanday bo'lishidan qat'i nazar vazifasi bir xil. Ammo

deskriptiv murojaatlarga xos bir xususiyat – adresat (nutq qaratilgan shaxs-narsa) haqida batafsilroq kengroq ma'lumot beriladi. Bu ham adresat haqidagi ma'lumotlarni bayon qilishning bir usuli sifatida qarash mumkin.

Masalan, konkret nutq vaziyati bilan bog'langan nutq vaziyatlariga mos holda murojaat yo'llangan shaxsning ijtimoiy maqomi, jamiyatdagi o'rnini ko'rsatadi. Yuqoridagi misolda murakkab nom murojaat yo'llangan shaxsning (murojaat obyektining) ijtimoiy mavqeini ko'rsatibgina qolmasdan uni baholash vazifasini ham bajargan. Bilamizki, *shoir* uslubiy juhatdan neytral so'z. Ammo uning tarkibidagi belgi uzvi – *hassos* murojaat obyektining bahosini ham ifodalaydi.

Murojaatlarni maxsus o'rgangan olim N.Ahmedova yoyiq – deskriptiv murojaatlar haqida shunday yozadi: "... murojaat birliklari so'zlovchining nutqi qaratilgan shaxsni yoki predmetni bildiradi. Demak, murojaat birligining asosiy – tayanch so'zi ot turkumi (ba'zan otlashgan so'zlar)ga mansub. Murojaat birliklari tayanch so'zning valentlik xususiyatiga ko'ra quyidagi guruhlariga bo'linadi:

1. Qaratuvchi uzvli deskriptiv murojaat birliklari.
2. Belgi uzvli deskriptiv murojaat birliklari.
3. O'rin uzvli deskriptiv murojaat birliklari.
4. Aralash uzvli deskriptiv murojaat birliklari" [1;35].

Biz ushbu maqolada E. Vohidov she'rlarida faol bo'lgan belgi uzvli yoyiq murojaat shakllarini tahlil qilishni maqsad qildik.

Ma'lumki, ob'ektiv borliqda o'zaro aloqada bo'lgan narsa va hodisalar bevosita sezgi a'zolarimizga ta'sir etadi va biz bu narsa-hodisalar o'rtasidagi aloqani umumlashtirgan holda ongimizda aks ettiramiz. Ongimizda aks etgan ob'ektiv aloqa muayyan lisoniy birlik (shakl) orqali ro'zaga chiqadi. Borliqdagi har qanday predmet turlicha belgilarga ega bo'ladi [4;11]. Otning belgi valentligining reallashuvi belgi uzvli murojaat birliklarini hosil qiladi. Belgi valentligini to'ldirishga xoslangan shakl sifat hisoblansa-da, ko'pincha bu vazifada ot, ravish, sifatdash kabilar ham murojaat birligining asosiy so'zi – otga (sifatlanmishga) nisbatan bitta funktsional shakl – sifatlovchi vazifasini bajaradi [1;39].

- Ojiz odam!!

Bas, boshimda qamchi o'ynatma! (Arslon o'rgatuvchi)

Undalma gap bo‘laklaridek uroshgan holda keladi, uroshgan undalmalarda ham belgi uzvli so‘z keladi. Uyushgan murojaatlarda murojaat obyektlari turlicha, unga yuklangan konnotativ ma‘no turli yo‘llar bilan ifodalanadi. Masalan, quyidagi murakkab nom vazifasiga ko‘ra ham baholash, ham yaqinlik, ham ekspessivlikni yuzaga chiqargan:

Ey, sen, go‘zal singlim, oshiq ukajon,

Oq yo‘l, saodatli sitoralarga! (To‘y oqshomida)

Murojaat shaklining asosi ot qismi yaqinlik (yoki ijtimoiy masofa saqlagan holda yaqinlik munosabatini o‘rnatish), ekspessivlikni ifodalagan bo‘lsa, ularga qo‘shilgan egalik va erkash-kichraytirish shakli *-jon* ega o‘sha leksik ma‘nodan anglashiladigan yaqinlik ma‘nosini bo‘rttirishga xizmat qilgan, belgi uzvi esa epitet-baho – konnotatsiya vazifasini bajargan.

Ma‘lumki, undalma gapdan ajratilsa (maxsus tinish belgilari yordamida) gap maqomini egallaydi va vokativ gap deyiladi. Tadqiqotchi N.Ahmedovanning ta‘kidlashicha “undalma qatnashgan gapning ekspessivlik ifodalash maqsadida parsellyatsiyaga uchrashi natijasida kelib chiqadi, ya‘ni asosiy gapdan uzilib qoladi va alohida gap bo‘lib shakllanadi. Bu vaziyatda nutqiy akt shuni taqozo qiladi. Bunday holatda undalmada ekspessivlik-emotsionallik kuchli bo‘ladi. Murojaat birligining parsellyatsiyaga uchrashi bilan gap bo‘lagining parsellyatsiyaga uchrashi mohiyatan bir xil hodisa hisoblanadi. Shu sababdan murojaat birligining ham alohida gap bo‘lib shakllanishini nutqiy vaziyat talabi deb baholash maqsadga muvofiq” [1;18] Bunday ajratish she‘riy asarlarda ham kuzatiladi. Masalan:

Shoir! Ey, tinchimas olovli iorak!

Adolat iolduzi senga mayoqdir (Sharqiy qirg‘oq).

She‘riy misrada *shoir* murojaat shakli maxsus intonatsiya bilan, shunga mos holda tinish belgisi bilan ajratilgan. Unga mustaqil gap deb qarash mumkin. jumla tarkibidagi *tinchimas olovli iorak* esa murojaatning davomi, tasviriy ifodaga ega bo‘lgan qayta murojaat deb qarash o‘rinli bo‘ladi.

Ba‘zan ma‘noni kuchaytirish, ta‘sirchanlikni oshirish – konnotativ munosabatni ifodalash uchun murojaat shaklining olmosh bilan ifodalangan ekvivalenti ishtirok etadi. Masalan:

*Ey, siz, **mening afg'on shoir do'stlarim,***

Qalbimni qalbingiz bilan ulayman.

Sizga hurriyatning mushkul yo'lida

Bardamlik tilayman, qudrat tilayman. (Afg'on shoirlariga)

E.Vohidov ijodida o'ziga xoslikka ega bo'lgan murojat shakllari qo'llangan. Ularni izoh uzvli yoyiq qurilmalar sifatida qarash mumkin. Shoirning quyidagi misralarida tobe uzv izoh mazmuniga ega. Vazifasiga ko'ra *og'ayni, uka* murojaatlari do'stona munosabat, yaqinlik ma'nosini ifodalaydi, deskripsiya tarkibidagi izoh uzvga ko'ra murojaat obyektining ijtimoiy mavqei, jamiyatdagi maqomi birga keltirilgan. Lirik qahramonning do'stona murojaati uning jamiyatdagi o'rni bilan qorishgan. Nutqning bu ko'rinihi og'zaki nutqqa ham xos:

*-Nima yashirgansiz, **shoir og'ayni?***

Hazil qilishadi hamkasb o'rtoqlar.

(Dehli aeroportida bo'lgan voqea)

-Gaping bo'lsa, mendan to'g'richa so'ra,

*Mikrofoningni qo'y, **muxbir ukajon!** (Bizlar ishlayapmiz)*

Ba'zi belgi uzvli deskriptiv murojaatlar o'z predikatiga ega bo'lib jumla semantikasida o'ziga xos o'rin tutadi. Bu sifatdoshlr bilan ifodalangan ikkilamchi propozitsiyalar bilan bog'liq. Ikkilamchi propozitsiya bu – sintaktik qayta bo'linishga uchragan deskripsiyalardir. Ular ham murakkab nom sifatida predmetning belgi uzvi sanaladi va yaxlit holda murojat shaklining semantikasi va vazifasi bilan bog'lanadi. Masalan:

Ey, men bilgan, bilmagan dunyo!

Zarradan to Koinot qadar,

Ham ayon, ham tilsimot qadar

Fikrat bovar qilmagan dunyo!

Men ham sendan bir kism bo'lib,

His, idrok, jon va jism bo'lib

YAralibman, yashamoqdaman. (Tirik sayyoralar, 1976)

She'riy misralar mazmunidan ma'lum bo'ladiki, nutq egasi she'riy jumlada

dunyoga murojaat qilyapti. Ya'ni uni shunday transformatsiyalash mumkin: birinchi qurilma – Men dunyoni bilaman//bilmayman, ikkinchi murojaat qurilmasi Fikrat(im) dunyoni bovar qilmaydi.

Ey, men tanho sevguchi yorim,

Tanidingmi endi o'zingni? (8-mart, 1971)

Ushbu she'riy misralarda *Ey, men tanho sevguchi yorim* qurilmasi yoyiq murojaat shakl bo'lib, aslida bu gap orqali *yorga* murojaat qilinyapti. *Meni tanho sevguvchi* qurilmasi *Yorim – mening tanho sevguvchim* tipidagi sodda gapning transformatsiya qilinishi natijasida shakllangan bo'lsa-da, gap mazmuni saqlanib, predikat kesim shaklinigina yo'qotyapti va shaxs otining bo'sh o'rinlarini to'ldirib, aniqlovchi vazifasini bajaryapti, ya'ni sifatdashning sintaktik va grammatik tabiatiga ko'ra ad'ektivatsiyaga uchragan [2;106].

Gap shaklidagi murojaatlar. E.Vohidovning bag'ishlov she'rlarida orasida ham ot asosli murojaatlar qo'llangan. Ular yaqinlari, do'stlari qarata qo'llangan bo'lib *shaxsiy murojaatlardir*. Ular o'zida bevosita shaxs nomlari – antroponimlarni aks ettiradi. Bunday murojaatlar aslida psevdopellyativ xarakterga ega bo'lib, ular orqali shoir do'stlariga, kasbdoshlariga, zamondoshlariga, shoirning so'zlari bilan aytganda, shoiralarga murojaat qilish va ularga dil izhorlarini yo'llashga imkon bergan. Shoir shoiralarning tavsiflaydi: ularning chiroy-u fayzga boyligini, o'zi oy, she'rlari soy ekanligiga ishora qiladi:

Sizga, ey Gulchehra qizlar, E'tibor,

Aytamiz ko'ngilda orzu neki bor.

Oy Halima ham Malika, Tursunoy,

Ey chiroy-u fayzga boy-u she'ri soy,

Sizga dildan eng samimiy ehtirom,

YAngi yilning tabrigi ham assalom! (Qorxat)

Mazkur murojaatlatning tabiatidan kelib chiqib aytish mumkinki, atoqli otlar she'rda bir qancha vazifalarni bajargan: a) nutqni yo'llash; b) nominativ; c) tavsiflash; d) emotiv-regulyatorlik (bu *qizlar, oy, she'r* so'zlarida namoyon bo'lgan) va e)matnni shakllantirish kabi. Ko'rinadiki, murojaat shakllari ko'pfunksional. Ular tabiatan shunday. Shu bois ularga she'riy asarning eng muhim komponenti sifatida qarash

kerak bo‘ladi.

Murojaatlar (undalmalar) badiiy nutqqa xos bo‘lgan uslubiy va ritorik figura sanaladi.

Murojaat shakllari nutq ishtirokchilariga: tinglovchiga yoki o‘quvchiga ta’sir qilishning bir usuli sanaladi.

Murojaat shakllari jumla tarkibidagi boshqa sintaktik shakllar kabi sodda va yoyiq holda qo‘llanadi. Belgi uzvli yoyiq murojaatlar vazifasiga ko‘ra farqlanmasa-da, ular mazmunan ko‘lami kengroq bo‘ladi.

Murojaat shakllari his-tuyg‘ularni ifodalash, she’rxonning e’tiborini tortish, baholash vazifasini bajaradi va she’riy jumlaning ifodaliligini oshirishga xizmat qiladi, ohangdorligini kuchaytiradi, kuchli ekspressiyani yugaga keltiradi va uni esdaqolarli qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ahmedova N. O‘zbek tilida murojaat birliklarining semantik-konnotativ tadqiqi: Filol.fan.nomz. diss. – Toshkent, 2008. – B. 35.
2. Mahmudov N. O‘zbek tilidagi sodda gaplarda semantik-sintaktik asimmetriya. – Toshkent, 1984, 106-b.
3. Nurmonov A., Mahmudov N., Ahmedov A., Solixo‘jayeva S. O‘sha asar. – B.93.
4. Usmonova H. Deskripsiya (murakkab nom) va uning gap tuzilishidagi o‘rni: Filol. fanlari nomzodi ... diss. avtoref. – Toshkent, 1994.asar. 1994. – B.11.
5. Akbarova Z.A. O‘zbyek tilida murojaat shakllari va uning lisoniy tadqiqi. Filol.f.n...diss. – Toshkyent. 2007. 23-b.
6. Sayfullayev A.R. Hozirgi o‘zbyek adabiy tilida undalma. –Toshkent, Fan. 19698; Sayfullayev A.R.. Syemantika i grammatika chlyenov pryedlojyeniya v sovryemyennom uzbyekskom yazykye.: Aftoryef. dis... kand. fil.nauk. –T., 2001. s.40
7. Saparniyazova, M., Gulmuradovna, J. N., Xayitbayevna, N. S., Küçük, S., Demirci, Ü. Ö., Soyer, A., & Kaba, H. THE SEMANTICS AND LINGUOCULTURAL ANALYSIS OF FOLK PROVERBS IN THE UZBEK O ‘G ‘UZ DIALECTS.
8. Khujaev, M. (2024). AHMED ZAKI: ON THE IDEAS OF THE PHILOSOPHY OF HISTORY. *Экономика и социум*, (1 (116)), 235-239.